

**INKLYUZIV TA'LIMGA KIRITISHNING ASOSIY TAMOYILLARI**

Rabiyeva Farangiz Abduraxim qizi

UNIVERSITY OF MANAGEMENT AND FUTURE TECHNOLOGIES Pedagogika-psixologiya yo'nalishi 2 - bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim, uning ahamiyati bilan bir qatorda asosiy tamoyillari va ularning tasniflari batafsil yoritib berilgan. Shuningdek, inklyuziv ta'limni rivojlantirishning pedagogik mohiyati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, inklyuziv ta'lim, tamoyil, moslashuvchanlik, malakaviylik, bog'lanish, korreksion yo'naltirish.*

ABSTRACT. *In this article, inclusive education, its importance as well as its main principles and their classifications are explained in detail. Also, the pedagogical essence of the development of inclusive education is revealed.*

Key words: *education, inclusive education, principle, flexibility, competence, connection, correctional guidance.*

АННОТАЦИЯ. *В этой статье подробно объясняется инклюзивное образование, его значение, а также его основные принципы и их классификации. Также раскрывается педагогическая сущность развития инклюзивного образования.*

Ключевые слова: *образование, инклюзивное образование, принцип, гибкость, компетентность, связь, коррекционная ориентация.*

KIRISH

Inklyuziv ta'lim bu ehtiyojmand, yordamga muhtoj bolalar uchun maxsus, kerak bo'lsa vaziyatga qarab o'zgaruvchan ta'lim tizimidir. Yurtimizda ota-onalar farzandlarini o'zlari istagan maktabga berishi, ularni ta'lim olishini nazorat qilishi mumkin. Ayniqsa, layoqatsiz yordamga muhtoj farzandi bor ota-onalar farzandlarini uyi yaqinidagi maktab yoki bog'chaga yuborishadi. U yerda esa bola bilan asosan tarbiyachi va sinf rahbarlar shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim bolalarga ularning nuqsoniga qarab moslashib, kerak bo'lsa ularning vaziyatiga qarab ta'lim turini



o'zgartirish imkonini ham beradi. Inklyuziv ta'lim markazida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bola turadi, unga har tomonlama g'amxo'rlik ko'rsatiladi. Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta'lim tizimida, birinchi navbatda, bolaning talablari o'rganiladi.

MATERIAL VA USULLAR

Inklyuziv ta'lim bu, birinchi navbatda, yaxshi umumiy ta'limdir va u quyidagilarni qamrab oladi:

- ✓ O'zimizda mavjud barcha narsalardan foydalanish. Ya'ni qo'llanma, o'quv materiallarini qiziq usullarda qo'llab bolalarni darslarga qiziqtirish;
- ✓ Tahlil qilinadigan topshiriqlarni ko'proq berib ular bilan muhokama qilish;
- ✓ Mashqlar ketma-ketligini to'g'ri tanlash;
- ✓ O'zgaruvchan bo'lish ham muhim;
- ✓ Bolaga murakkab darslarni soddalashtirish va ularni bajargan ishlari uchun maqtash ham eng kerakli omildir;
- ✓ Har bir muhokamada bolalarning yutuqlarining uning avvalgi yutuqlariga salishtirib, qayd etib, takidlab borish muhimdir.

O'quvchilar bilan turli xildagi va psixologik testlar o'tkazishda bolaning irqiga, ijtimoiy kelib chiqishiga, jinsi va nogironlikka oid savollarni bermaslik ayni muddao. O'qituvchilar ishlarini va ularning yutuqlarini barcha sohalarida maktab va maktabdan tashqari ishlarda namoyish qilib borish kerak. Darslarga materiallar tayyorlashda imkoniyati cheklangan bolaning ijod namunalarini ham qo'llash juda samara beradi. Kitoblar, plakatlar va dasturlarni qo'llayotib, shunga ishonch hosil qilish kerakki, ular inklyuziv ta'limga mos kelishi kerak. Maktablar ochiq bo'lishi, o'quvchilar, ota-onalar va pedagoglar muloqot qila bilishi kerak.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Har qanday ta'limni joriy etishda ma'lum bir qoidalar o'rnatilishi, tamoyillar ishlab chiqilishi kerak. Shuningdek inklyuziv ta'limga kiritishning ham bir nechta tamoyillari mavjud. Ular quyidagilarga asoslanadi:

1. Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi;



2. Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi;
3. Bog'lanishning mavjud bo'lishi;
4. Markazlashtirilmagan bo'lishi;
5. Inklyuziv ta'limda kompleks yondashish;
6. Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik;
7. Malakaviylik;

1. Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi. Turli ta'lim tizimlarini joriy qilishda ko'plab qonunlar qabul qilinishiga qaramasdan, maxsus yordamga muhtoj bolalar tarbiyasi ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Shuning uchun ham dunyo bo'ylab aholi orasida inklyuziv ta'lim tizimini e'tirof etish va barchani bundan xabardor qilish bu bosh tamoyil hisoblanadi.

2. Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili. Eng katta muammolardan biri bu inklyuziv ta'limni barcha hududlarda tashkil qilinmagani. Har doimgidek shahar markazlarida yashab turgan maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga sharoit yaratib berilayotgan bir vaqtda, chekka qishloqdagilar bunday imkoniyatdan foydalana olmayotgani insonni o'ylantiradi.

3. Bog'lanishning mavjud bo'lishi. Bu yaratilayotgan ta'lim tizimi va maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning layoqatini bir biriga mutanosib bo'lishi bilan belgilanadi. Ya'ni bolalarni maktabda bemalol harakat qilishi va boshqa imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'quv binosi tanlash, darslik va kòrgazmali qurollar ham shunga mutanosib bo'lishi maqsadga muvofiq.

4. Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili. Inklyuziv ta'lim mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan bo'lishi, unda òzgarmas qoidalar mavjud bòlmasligi alohida ahamiyatga ega.

5. Inklyuziv ta'limga kompleks yondashish tamoyili. Maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga maxsus tarbiyaga muhtoj deb faqatgina nuqson jihatidan emas, balki har tomonlama yondashish lozim. Bundan tashqari inklyuziv ta'limda maxsus tarbiyaga muhtoj boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim, kunikmalarga ega qilish, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi.



6. Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik. Bu tamoyilning mazmuni shundaki, inklyuziv ta'limda qo'llaniladigan darsliklar, o'quv rejalar barchasi maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar holatiga moslashuvchan bo'lishi kerak.

7. Malakaviylik tamoyili. Maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun tashkil qilingan inklyuziv maktabda pedagoglar mahoratli bo'lishi, ularning defektologiya sohasidan ham xabardor bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Inklyuziv maktablardagi pedagoglar malakali bo'lishi ular barcha sohalardan xabardor bo'lishi muhim omil hisoblanadi. Negaki maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni qiziqishlarini aniqlab, psixologik jihatdan ularga ko'mak berib, kasbga yo'naltirish ham pedagogning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

XULOSALAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'limda pedagogik jarayonning mazmun komponenti alohida ehtiyojli bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarkibning o'zgaruvchanligini ta'minlashdan iboratdir. Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lmish farzandlarni ma'suliyatini his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab yashnashiga salmoqli ulush qo'shadigan munosib fuqarolar bo'lib yetishishlariga kata umid bilan qaraladi. Ko'plab mamalakatlarda imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktablar mavjud, ularning vazifasi esa ularni maxsus o'quv yurtlariga tayyorlash hamda ijtimoiy hayotga moslashuviga shart-sharoit yaratishdir. Nogiron bolalarni psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash o'qituvchining har xil turdagi sog'lig'i bilan bog'liq muammolarga duch kelgan bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan birgalikdagi va individual faoliyatini tashkil etish qobiliyatini taxmin qiladi har bir bolaning tarixi to'g'risida dastlabki ma'lumotlarni to'plash ularni qobiliyati haqidagi bilimlarni oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.



2. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
3. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
4. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
5. Хайдаров С. (2025). Oilalarda farzand tarbiyasiga ruhiy ta'sir etkazish. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
6. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
7. Haydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
8. Haydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissinii tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.